

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2025- yilning yanvar-sentabr oylarida Toshkent shahri bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 252 111,2 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2024- yilning yanvar-sentabr oylari bilan taqqoslaganda 11,2 % ga o'sdi.


YAHM deflyator indeksi 2024- yilning yanvar-sentabr oylari narxlariga nisbatan 109,3 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Toshkent shahrining qo'shgan hissasi 19,3 % ga yetdi.

2025- yilning yanvar-sentabr oylarida Toshkent shahrida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot



- YAHM o'sish sur'ati
- YAHM hajmi
- YAHM deflyator indeksi
- YAIMga qo'shgan hissasi



2025- yilning yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari


	Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
	2024- yil	2025- yil	
I. YAHM, jami	207 423,3	252 111,2	111,2
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	190 663,8	231 698,7	111,0
mahsulotlarga sof soliqlar	16 759,5	20 412,5	113,9
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	190 663,8	231 698,7	111,0
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	72 580,8	87 142,3	110,8
sanoat	52 305,6	60 843,3	106,9
qurilish	20 275,2	26 299,0	120,8
xizmatlar	118 083,0	144 556,4	111,1
savdo, yashash va ovqatlanish	30 790,8	37 510,7	112,6
bo'yicha xizmatlar			
tashish va saqlash, axborot va aloqa	30 474,6	41 524,4	118,6
boshqa xizmat tarmoqlari	56 817,6	65 521,3	106,3

Quyida keltirilgan infografikadan ko'rinib turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 80 331,4 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 8,7 % ga yuqoridir.

2025- yilning yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi (ming so'mda)



2025- yilning yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHMning o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % hisobida)



Yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiqa nisbatan % da)

	2024- yil	2025- yil
I. YAHM, jami	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	91,9	91,9
mahsulotlarga sof soliqlar	8,1	8,1
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	100,0	100,0
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	38,0	37,7
sanoat	27,4	26,3
qurilish	10,6	11,4
xizmatlar	62,0	62,3
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	16,1	16,2
tashish va saqlash, axborot va aloqa	16,0	17,9
boshqa xizmat tarmoqlari	29,9	28,2



2025- yilning yanvar-sentabr oylarida hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 91,9 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 8,1 % ini tashkil etdi.


Hisobot davrida sanoat tarmog'ining YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 26,3 % ni, qurilish 11,4 % ni va xizmatlar sohasi 62,3 % ni tashkil qildi.

Yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

2024- yil



2025- yil



● Yalpi qo'shilgan qiymat


● Mahsulotlarga sof soliqlar



YAHM o'sishiga sanoat tarmog'i – 1,7 f.p. (2024- yilning yanvar-sentabrda – 2,2 f.p.), qurilish tarmog'i – 2,0 f.p. (2024- yilning yanvar-sentabrda – 1,2 f.p.) va xizmat ko'rsatish sohasi – 6,4 f.p. (2024- yilning yanvar-sentabrda – 6,1 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi.

Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 1,1 f.p. (2024- yilning yanvar-sentabrda – 0,5 f.p.)ga ko'paydi.

2025- yilning yanvar-sentabr oylarida YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)



2025- yilning yanvar-sentabr oylarida YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari sanoatda – 106,9 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 26,3 %), qurilishda – 120,8 % (11,4 %), xizmatlar sohasida – 111,1 % ni (62,3 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 112,6 % (16,2%), tashish va saqlash, axborot va aloqa 118,6 % (17,9 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 106,3 % dan (28,2 %) iborat bo'ldi.

Yanvar-sentabr oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)

2024- y.

2025- y.



10,0 %

YAHM

11,2 %



8,5 %

Sanoat

6,9 %



11,6 %

Qurilish

20,8 %



10,9 %


Xizmatlar

11,1 %



2025- yilning yanvar-sentabr oylarida YAHM deflyatori indeksi 2024- yilning yanvar-sentabr oylaridagi narxlarga nisbatan 109,3 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari sanoatda – 108,8 % va xizmatlarda – 110,2 % qayd etildi.

Yanvar-sentabr oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



2025- yilning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik 116 556,1 mlrd. so'mni tashkil etdi (2024- yilning yanvar-sentabr oylarida – 98 251,3 mlrd. so'm). YAHMdagi ulushi 50,3 % ni (2024- yilning yanvar-sentabr oylarida – 51,5 %) tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o'tgan yilning mos davriga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bog'liq.

**Yanvar-sentabr oylarida kichik biznesning hajmi va
YAHMdagi ulushi**
(jamiga nisbatan %da)

